



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-oktabr

583-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Startup loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ–357-son qarori ijrosi haqida”gi 499-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

2024 yil 20-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan to‘rtinchi ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, barqaror startup loyihalar ekotizimini shakllantirish va venchur kapital bozorini kengaytirish orqali mamlakatimizga xorijiy venchur investitsiyalarini jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Startup loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ–357-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 499-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 499-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ–357-son qarori bilan:

Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining raqamli texnologiyalar sohasidagi startup loyihalarni har tomonlama qo‘llab- quvvatlashga qaratilgan Raqamli startaplar dasturini amalga oshirish (keyingi o‘rinlarda – Dastur) to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq Dasturda quyidagi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar ishtirok etishi mumkin:

a) quyidagi talablarga mos keluvchi startup loyihalar: faoliyat davomiyligi – 6 oydan 7 yilgacha;

kalendar yilida jami daromadi – 10 milliard so‘mdan oshmagan;

inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturini muvaffaqiyatli yakunlaganligini tasdiqlovchi hujjatga ega;

raqamli texnologiyalarga asoslangan, yuqori o‘sish va xorijiy bozorlarga chiqish salohiyati bo‘lgan biznes modelga ega;

startup loyihalar ekotizimi platformasida ro‘yxatdan o‘tgan;

b) startup ekotizimi ishtirokchilari – venchur jamg‘armalar va xususiy investorlar hamda startup loyihalar uchun akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini tashkillashtirish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub‘ektlari;

belgilanishicha, Dastur ishtirokchilariga quyidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari qo‘llanadi:

a) boshqaruvi ostidagi investitsiya aktivlari qiymati 50 million AQSh dollaridan ko‘p bo‘lgan xorijiy venchur jamg‘armalardan investitsiya jalb qilgan startup loyihalarga mazkur investitsiyaga teng miqdorgacha bo‘lgan, biroq 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda investitsiya mablag‘larini ajratish;

b) quyidagi xarajatlarni qoplab berish:

5 yildan ortiq muddat davomida faoliyat yuritayotgan hamda kamida 100 million AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilgan yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish, shuningdek,

Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq, tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv yo'nalishlaridagi kurslarda o'qish va sertifikat olish bilan bog'liq xarajatlarning

50 foizigacha bo'lgan, biroq 20 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda;

inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlariga mentorlar va trenerlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizigacha bo'lgan, biroq 50 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda;

patentlash hamda intellektual faoliyat natijalari va savdo belgilarini ro'yxatdan o'tkazish xarajatlari;

v) Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o'rinlarda IT-park) huzuridagi venchur jamg'arma tomonidan garov ta'minotisiz, Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 300 million so'mgacha miqdorda startap loyihalarga qarz mablag'larini ajratish;

g) IT-Visa berish amaliyotini startap loyihalarning ta'sischi (ishtirokchilari) va mutaxassislariga ham tatbiq etishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligining Dastur uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan IT-park huzurida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida ustav fondi 10 million AQSh dollari ekvivalentiga teng bo'lgan raqamli texnologiyalar sohasidagi startap loyihalarni moliyalashtiradigan venchur jamg'arma tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

2025-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar Dastur doirasida 1-ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrdagi PF-244-son Farmonida belgilangan tartib asosida raqamli startaplar sohasida "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi (keyingi o'rinlarda – maxsus huquqiy rejim) joriy etilganligi;

Startap ekotizimini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda – Muvofiqlashtiruvchi kengash) 2-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilishi va asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

Dastur doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish, chora- tadbirlar ijrosini, jumladan, startap-studiyalar, inkubatsiya va akseleratsiya markazlari tashkil etilishini monitoring qilish, yuzaga kelayotgan masalalarni ko'rib chiqish va hal qilish, bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining hisobotlarini eshitishi;

Dastur ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini qo'llash tartibini belgilashi;

har yili startap ekotizimini takomillashtirish va venchur kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni tasdiqlashi;

bunda, Muvofiqlashtiruvchi kengash startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini tahlil qilib borish maqsadida choraklik yig'ilishlar o'tkazib borishi;

2024–2026-yillarda startap ekotizimini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev), manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-357-son qarorning 3-ilovasidagi "yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan topshiriqlar o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**